

№ 07-5/40
2026 y. "4" iyun

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ
Kuzatuv kengashining
2026-yil “26” may dagi
25 sonli yig’ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi
Sh. Nosirov



“ANOR BANK” AJDA ISHGA QABUL QILINAYOTGAN
NOMZODLARNI TEKSHIRISH BO‘YICHA
YO‘RIQNOMA

TOSHKENT-2026

MUNDARIJA

I. BOB. UMUMIY QOIDALAR	3
II BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR	3
III-BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISHGA QO‘YILGAN UMUMIY TALABLAR VA ULARNING MUDDATLARI	4
IV-BOB. TEKSHIRISH UCHUN HUJJATLAR VA MA‘LUMOTLARNI OLISH	4
V BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISH UCHUN AXBOROT MANBALARI	5
VI BOB. NOMZODLAR TEKSHIRUVINI O‘TKAZISH YO‘NALISHLARI	5
VII BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISH NATIJALARI	6
VIII BOB. TEKSHIRUVNI HUJJATLASHTIRISH, ULARNI SAQLASH VA MAXFIYLIK	6
IX BOB. YAKUNIY QOIDALAR	7
1-ILOVA	9
2-ILOVA	12
3-ILOVA	13

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu “ANOR BANK” AJda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma (*keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma deb yuritiladi*) “ANOR BANK” AJga (*keyingi o‘rinlarda – Bank deb yuritiladi*) ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirishning asosiy tamoyillari, tartibi va talablarini belgilovchi ichki qoida hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek Bankning ichki qoidalari, komplayens nazorati, axborot xavfsizligi va korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Ushbu Yo‘riqnomaning maqsadlari quyidagilardir:

- nomzod tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma‘lumotlar, professional faoliyati, qarindoshlik va tijorat aloqalari, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi ehtimoli mavjud holatlar haqidagi ma‘lumotlarni tekshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, xolis va samarali bajarishga qodir shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishni ta‘minlash;

- Bankda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan yoki ularni ishga qabul qilish Bank uchun reputatsiyaviy, korrupsiyaviy va boshqa xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan shaxslar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xavfini minimallashtirish;

- rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli hamda yuqori kasbiy va axloqiy fazilatlariga ega xodimlarni tanlab olish.

4. Nomzodlarni tekshirish faqat mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hajmda va qonunchilikda ta‘qiqlanmagan usullar orqali amalga oshiriladi.

5. Nomzodlarni tekshirish jarayonida olingan barcha ma‘lumotlar maxfiy hisoblanadi hamda O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma‘lumotlarga oid qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq muhofaza qilinadi.

6. Nomzodlarni tekshirish jarayonida irqi, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilar bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Tekshiruv jarayonida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari Bankning tegishli ichki hujjatlariga muvofiq baholanadi.

II BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR

8. Ushbu Yo‘riqnoma maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi

shaxslar orqali pora beruvchining manfaatlari yo'lida harakat qilish yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaat ko'rishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tUSDagi xizmatlarni olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish, pora olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiymanfaatdorlik bilan Bank, jamiyat yoki davlat manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat;

nomzod – Bankda bo'sh (vakant) bo'lgan muayyan ish o'rnini (lavozimini)ga egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs.

noqonuniy foyda – va'da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar yoki boshqa har qanday moddiy va nomoddiy foyda;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida uning o'zi yoki unga aloqador shaxslar tomonidan moddiy yoki nomoddiy manfaat olishga bo'lgan qiziqishi (*shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari*);

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar (shu jumladan farzandlikka olinganlar), shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari (shu jumladan farzandlikka olinganlar).

III-BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISHGA QO'YILGAN UMUMIY TALABLAR VA ULARNING MUDDATLARI

9. Komplayens-nazorat boshqarmasi nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi. Tekshiruv jarayoniga zaruratga ko'ra Umumiy xavfsizlik boshqarmasi ham jalb qilinishi mumkin.

10. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etiladigan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladi.

11. Nomzod professional tanlov va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilishidan oldin tekshiruvdan o'tkaziladi.

12. Nomzodni tekshirish 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

13. Xolis sabablarga ko'ra tekshiruvni belgilangan muddatda yakunlash imkoni bo'lmagan taqdirda, uning muddati qo'shimcha 5 (besh) ish kuniga bo'lgan uzaytirilishi mumkin.

IV-BOB. TEKSHIRISH UCHUN HUJJATLAR VA MA'LUMOTLARNI OLISH

14. Nomzodni tekshirishni amalga oshiradigan Komplayens-nazorat boshqarmasiga tekshiruvni o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar Personalni boshqarish departamenti tomonidan taqdim etiladi:

– O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;

– nomzod tomonidan Bankdagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki qoidaga muvofiq belgilangan shaklda to‘ldirilgan va imzolangan deklaratsiya nusxasi;

– shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berishga rozilik Arizasi.

15. Taqdim etilgan hujjatlarda to‘liq bo‘lmagan yoki aniqlashtirilishi zarur bo‘lgan ma‘lumotlar aniqlansa, Komplayens-nazorat boshqarmasi nomzoddan qo‘shimcha ma‘lumot so‘rab olishga haqli.

16. Komplayens-nazorat boshqarmasi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar yuzasidan tushuntirish va izohlarni so‘rashga haqli.

17. Nomzod so‘ralgan hujjatlar yoki ma‘lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda, tekshiruv ochiq manbalar va Bank tasarrufidagi ma‘lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so‘rovlar yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda Komplayens-nazorat boshqarmasi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli holatni qayd etadi.

18. Nomzod tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etmaslik uning ishga qabul qilinishi bo‘yicha qaror qabul qilishda rad etish uchun sabab bo‘lmaydi.

V BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISH UCHUN AXBOROT MANBALARI

17. Nomzodlarni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma‘lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan hamda rasmiy so‘rovlar orqali olingan ma‘lumotlar tahlil qilinadi.

18. Axborot manbalari qonuniylik va xolislik tamoyillariga javob berishi lozim. Komplayens-nazorat boshqarmasi boshqa davlat organlari, tashkilotlar, nomzodning avvalgi ish joylari va ta‘lim muassasalariga ma‘lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so‘rov yuborishi mumkin.

19. Komplayens-nazorat boshqarmasi huquqni muhofaza qilish organlariga so‘rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.

VI BOB. NOMZODLAR TEKSHIRUVINI O‘TKAZISH YO‘NALISHLARI

20. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- tugatilmagan sudlanganlik holatlari yo‘qligi;
- ma‘muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganlik holatlari mavjud emasligi;
- rahbarlik lavozimlarini egallashga ta‘qiq yo‘qligi – rahbarlik lavozimiga nomzodlar uchun;
- nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari bilan bog‘liq korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga hilof holatlar yo‘qligi;
- avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar mavjud emasligi;
- nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi belgilari yo‘qligi;
- nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo‘qligi.

21. Qayd etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Bunda tekshiruv yo‘nalishlari ro‘yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

VII BOB. NOMZODLARNI TEKSHIRISH NATIJALARI

22. Nomzodni tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot tuziladi (*ushbu Yo'riqnomani 1-ilova shakli bo'yicha*) va mazkur hisobot Personalni boshqarish departamentiga belgilangan tartibda saqlash uchun taqdim etiladi. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma'lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri (*ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova*) ga kiritiladi.

23. Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda Tekshiruv o'tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

24. Komplayens-nazorat boshqarmasi Nomzodlarni tekshirish reyestriga kiritiladigan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu Reyestri tegishli tarzda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

25. Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobotning 3 bo'limidagi 3.1, 3.2, 3.3 yoki 3.4 bandlari savollariga bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi.

Mazkur hisobotning 3.5 yoki 3.6 bandlaridagi savollardan biriga bittasiga bo'lsa ham bir va undan ortiq xavf indikatorlari ("*Ha*" javoblari) mavjud bo'lgan taqdirda, tekshiruv o'tkazayotgan shaxs vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha baholaydi.

26. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkoni bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

27. Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda tavsiya etilgan chora-tadbirlar ijrosi nazorati o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uning bevosita rahbari zimmasiga yuklatiladi.

28. Bankda vakant lavozimlariga ishga qabul qilish va rasmiylashtirish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish "ANOR BANK" AJga ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

29. Bankda xodim bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida band kiritiladi (*3-ilova*).

VIII BOB. TEKSHIRUVNI HUJJATLASHTIRISH, ULARNI SAQLASH VA MAXFIYLIK

30. Nomzodni tekshirish natijalari (*jumladan, Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot va ushbu jarayon bilan bog'liq boshqa hujjatlar*) maxfiy hisoblanadi va Nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan Bank xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

31. Ishga joylashayotgan nomzodlar tekshirilganligi to'g'risidagi reyestri (*1-ilova*)dan faqatgina Komplayens-nazorat boshqarmasi foydalanishi mumkin.

32. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar Bank Boshqaruv Raisi yoki uning o'rinbosarining yozma roziligini olishi lozim.

33. Tekshiruv o'tkazilganligi to'g'risidagi hisobot nusxasi, shuningdek, hisobotdagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko'chirma, vakolatli Banklarga yuborilgan so'rovlar va ularga olingan javoblar va h.k) Personalni boshqarish departamenti tomonidan kamida 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

34. Bankka ishga qabul qilinmagan nomzodlarni tekshirish natijalari uch yil saqlanadi.


IX BOB. YAKUNIY QOIDALAR

35. Ushbu "ANOR BANK" AJda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnama O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgartirish taqdirda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

36. Mazkur Yo'riqnama talablarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortiladi.

37. Ushbu Yo'riqnama talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish hamda uning ijrosini muvofiqlashtirish Komplayens-nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi.

Kiritildi:

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i  D. Xushnazarov

Kelishildi:

Boshqaruv raisi  Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari  E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari  M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari  E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari  A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari  S. Xan

Boshqaruv raisi o'rinbosari  M. Avazov

Boshqaruvchi direktor  A. Bakiyev


Bosh buxgalter  U. Babayev

Yuridik boshqarma boshlig'i



T. Zanaxov

Ichki audit departamenti direktori



S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori



M. Pulatova

Risk menejmenti departamenti direktori



D. Ibragimova

Personalni boshqarish
departamenti direktori v.b.



A. Ilxomjonov

Umumiy xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i



M. Norkin

*“ANOR BANK” AJda ishga qabul qilinayotgan
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomaga*

1-Ilova

Nomzod tekshirilganligi to‘g‘risidagi hisobot

1. Asosiy ma’lumotlar			
1.1	Nomzodning F.I.Sh.		
1.2	Tug‘ilgan sanasi		
1.3	Bo‘sh lavozim nomi		
1.4	Bo‘linma		
1.5	Bog‘lanish uchun telefon		
1.6	Elektron pochta manzili		
2. Ish tajribasi			
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlari		
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy fikrlar mavjudligi		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3. Tekshiruv natijalari			
3.1	Nomzoddan talab qilingan hujjatlarning to‘liq paketi olindimi? (“Yo‘q” javobi faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilish vaqtida talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Yetishmayotgan hujjat(lar):</p> <p>Ularning yo‘qligi sababi(lari):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3.2	Nomzoddan olingan, jumladan ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchlilik alomatlari va u tomonidan o‘zi haqidagi ayrim ma’lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari yo‘qligi		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Izoh(lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3.3	Nomzodda tugatilmagan sudlanish jarayoni va (yoki) iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma’muriy, jinoiy yoki intizomiy		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>(agar javob ijobiy bo‘lsa, asosini ko‘rsating)</p> <p>Izoh(lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		

	javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi		
3.4	Sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo'qligi (rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.5	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlar mavjudligi:	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
	1) Nomzodning yaqin qarindoshlari Bankning amaldagi xodimi hisoblanadi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlarini ko'rsating)	
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	2) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimni egallab turgan bo'lsa yoki potensial ravishda Bank kontragentlari bo'lishi mumkin bo'lgan kompaniyalar boshqaruv organlari tarkibiga kirs	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	3) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday Bankning ommaviy muomalada bo'lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoxud Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarning 5% va undan ortig'iga egalik qilsa yoki kompaniyalar faoliyati natijalarida shaxsiy manfaatdorligi bo'lsa (jumladan, investitsiyalar kiritish orqali)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	4) Boshqa alomatlar	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.6	Ish joyiga nomzod yoki uning yaqin qarindoshlarining korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	

	doir ma'lumotlar yo'qligi	Manba(lar):	
3.7	Nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi.	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.8	Boshqa ma'lumotlar (jumladan, intervyu natijalari)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
4	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlili (3.5 hamda 3.6 bandlariga yoki ushbu bandlarning bittasiga javob ijobiy bo'lsa) va ularni minimallashtirish choralari bo'yicha tavsiyalar		
5	Xulosa		
		Ha / Yo'q	Izohlar
	3.1, 3.2, 3.3 va 3.4 bandlarida ko'rsatilgan xatar indikatorlari mavjudligi		Qayd etilgan toifadagi aqalli bitta xatar mavjud bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi
	3.5, 3.6, 3.7 va/ yoki 3.8 bandlarida xatar indikatorlari mavjudligi		Yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish imkonsiz bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi
	YAKUNIY NATIJA	(salbiy xulosa /ijobiy xulosa)	
	TAVSIYALAR (aniqlangan xatarlarni hisobga olgan holda)		

Komplayens-nazorat boshqarmasi

(F.I.O.)

(imzo)

(sana)

20__y. "____"

*“ANOR BANK” AJda ishga qabul qilinayotgan
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomaga*

2-Ilova

“ANOR BANK” AJda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reestri

T/r	Nomzodning F.I.Sh.	Bo‘sh lavozim nomi	Bo‘lim nomi	Tekshiruv Komplayens- nazorat boshqarmasi, F.I.Sh.	Nomzodni tekshirish bo‘yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (ijobiy / salbiy / aniqlangan xatarlar)	Tekshiruv natijasini asoslovchi qisqa izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8

“ANOR BANK” AJning xodimlar bilan tuzilayotgan mehnat shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kiritiladigan ogohlantirish bandi namunasi

Ushbu shartnoma bo'yicha o'z vazifalarini bajarish doirasida xodim:

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlaydi. Jumladan “Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati”, “Sovg'alar va vakillik xarajatlarini tartibga solish to'g'risidagi Nizomi” talablariga to'liq amal qiladi;
- Bankning ichki qoidalarida belgilangan talablar va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda kelajakda mazkur talablar buzilgan taqdirda javobgar bo'lishini anglaydi;
- o'z faoliyati davomida yuridik va jismoniy shaxslarga, shuningdek davlat ishtirokidagi tashkilotlar xodimlariga pora berish, pora olish yoki bunda vositachilik qilish, ulardan moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyiladi, shuningdek bunday harakatlarga tashabbus ko'rsatmaydi, ruxsat bermaydi va va'da qilmaydi;
- Xodimga chet davlat fuqaroligini olish ta'qiqlanadi;
- ish jarayonida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan huquqbuzarliklar to'g'risida bevosita rahbariga yoki Komplayens-nazorat boshqarmasiga zudlik bilan xabar berishi shart.